

ITALYAN XALQ ERTAKLARINI O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA BADIY TASVIR VOSITALARINING TASNIFI

Baxora Ergashova

O‘zDJTU Italyan tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrası o‘qituvchisi

b.ergashova@uzswlu.uz

+99899 8929005

Annotatsiya

Mazkur maqolada Italo Kalvino tomonidan to‘plangan “*Fiabe italiane*” (“Italyan ertaklari”) asaridagi badiiy-tasvir vositalarining o‘zbek tiliga tarjima jarayoni tahlil qilingan. Tadqiqotda metafora, o‘xshatish, epitet, frazeologik birliklar, ritm va qofiya kabi vositalarning semantik yukini saqlagan holda tarjima qilish muammosi yoritiladi. Tarjima jarayonida dinamik ekvivalentlik, madaniy moslashuv va funksional tenglik tamoyillari uyg‘un qo‘llanilishi zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Italo Kalvino, italyan xalq ertaklari, tarjima strategiyasi, badiiy-tasvir vositalari, dinamik ekvivalentlik, madaniy moslashuv, metafora tarjimasi.

Abstract

This article analyzes the translation of stylistic and figurative devices found in Italo Calvino’s “*Fiabe italiane*” (“Italian Folktales”) into Uzbek. The study focuses on the challenges of rendering metaphors, similes, epithets, idiomatic expressions, rhythm, and rhyme while preserving their semantic and emotional effect. The paper argues for the

integrated use of dynamic equivalence, cultural adaptation, and functional equivalence strategies in translation.

Keywords: Italo Calvino, Italian folktales, translation strategy, figurative language, dynamic equivalence, cultural adaptation, metaphor translation.

Italyan xalq ertaklari, xususan Italo Kalvino tomonidan to‘plangan “Fiabe italiane”(Italyan ertaklari), Italiya viloyatlari va tumanlariga xos og‘zaki ijod namunalarini yagona korpusda jamlab, o‘zining xalqona uslubi, badiiy rang-barangligi va tasviriy vositalari bilan ajralib turadi. Bu to‘plam italyan xalq madaniyati va xalq og‘zaki ijodining boy qatlamini ilmiy asosda birlashtirgani bilan muhimdir. Ushbu ertaklarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda nafaqat mazmunni, balki badiiy-tasvir vositalarini-metafora, o‘xshatish, epitet, tazod, jonlantirish, frazeologik birliklar, ritm va qofiya, xalqona iboralarni to‘g‘ri ifodalash zarur. Tarjimada bu vositalarning semantik maydonini to‘liq yetkazish, asarning emotsional va estetik kuchini saqlab qolish uchun muhim hisoblanadi. Tarjima tillarni mukamal bilish, egallash bilan yuzaga chiqadi. Qadimgi adiblarimizdan biri Yusuf Xos Xojib mashhur “Qutadg‘u bilig” (“Baxt keltiruvchi bilim”) asarida inson hayotida tilning o‘rnini shunday ta’riflagandi:

Uquvga, bilimga tilmochdir bu til

Yoritguvchi emi ravon tilni bil.

Kishini til ulug‘lar, topar qut kishi

Kishini til tubanlar, yorilar boshi..¹.

Maqolaning maqsadi italyan xalq ertaklaridagi badiiy-tasvir vositalarini tahlil qilib, ularni o‘zbek tiliga tarjima jarayonida qo‘llaniladigan strategiyalarni aniqlashdan iborat. Metodologik asos sifatida tarjima nazariyasidagi muhim yondashuvlar E.Nida

¹ Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma /I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov. Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. 15 b.

(ekvivalentlik), U.Eko (pragmatik moslashuv), M.Baker (sathlar bo'yicha strategiyalar), P.Newmark va T.Dobrzyńska (metafora tarjimasi), hamda J.P.Vinay va J.Darbelnet (tarjima protseduralari) qarashlari tayanch predmetlar sifatida olinadi.

Italiyan xalq ertaklari, mamlakat madaniy merosining ajralmas qismi sifatida, asrlar davomida shakl va mazmun jihatidan sezilarli ravishda rivojlandi. Ushbu xalq ertaklari, og'zaki an'analarga asoslangan bo'lib, nafaqat avlodlarni tarbiya qilish, balki Italiyadagi madaniy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlarni aks ettirish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. E.Nida tarjima jarayonida formal va dinamik ekvivalentlikni farqlaydi.² Unga ko'ra, ertak singari folklor matnlarda "eng yaqin tabiiy ekvivalent"ni topish asar obrazlarining o'quvchiga ko'rsatadigan ta'sirini muvofiqlashtirishni talab qiladi. Shu bois metafora yoki maqollarni o'zbek o'quvchisiga tanish bo'lgan obrazlarda ifodalash zarur. Masalan, *Il danaro fa tutto* (Pul har narsaga qodir) ertagida quyidagi parchani tahlil qilamiz: *C'era una volta un Principe ricco come il mare. Gli venne voglia di farsi un palazzo, proprio in faccia a quello del Re, ma più bello ancora di quello del Re. Finito il palazzo ci fece scrivere sulla facciata questa scritta: **Il danaro fa tutto***-Bir bor ekan bir yo'q ekan, dengiz kabi boy shahzoda bo'lgan ekan. Dengiz kabi boy-bu so'zma-so'z tarjima bo'lib, biz uni bitmas-tugamas boylikka ega deb ham tarjima qilishimiz mumkin. Italiya yarimorol bo'lib, geografik jihatdan uch tomondan suv bilan va bir tomondan quruqlik bilan o'ralgan. Shuning uchun xalq og'zaki ijodida suv va suv hayvonlari bilan bog'liq bo'lgan birikmalar va maqollar ko'plab uchraydi. - *Unda podshoning saroyiga ro'para qilib, hatto podshoningkidan ham chiroyliroq bir qasr qurish istagi paydo bo'ldi*-bu gapda "proprio in faccia"-to'g'ridan to'g'ri tarjimada "qoq yuzida" degan ma'noni anglatadi, o'zbek tilida ekvivalent sifatida "peshonasida" so'zini olish mumkin, ammo bu leksema asosan, og'zaki nutqda qo'llaniladi. -Qasr tayyor bo'lgach, uning peshtoqlariga quyidagi yozuvni yozdirdi: "*Pul hamma narsani qila oladi*". **Il danaro fa tutto** gapini biz "Pul har narsaga qodir" deya tarjima qilishimiz badiiylikka yaqinroq hisoblanadi.

² B.Ergashova, Italiyan xalq ertaklarining tarixiy taraqqiyoti. So'z san'ati jurnali №4 | 2024

U.Eko “Deyarli aslidek demoq” (Dire quasi la stessa cosa) ilmiy asarida tarjima jarayonining markazida soʻz emas, balki madaniy signal va kommunikativ uzatma turishini taʼkidlaydi. Italyan ertaklaridagi dialektal unsurlar, madaniy realiyalar va xalqona atamalarni oʻzbek tiliga toʻgʻri koʻchirishda bu yondashuv muhim amaliy ahamiyatga ega. M.Baker esa ekvivalentlikni toʻrt sathda-leksik, grammatik, semantik va pragmatik darajalarda tahlil qiladi. Ertak tarjimasida ayniqsa, matn sathidagi uygʻunlik (takror, ohang, motiv zanjiri)ni saqlash muhim boʻlib, bu oʻquvchida ertakka xos ritm va ohang haqida tasavvurlarni uygʻotadi. J.Rodarining “Hurishni eplolmaydigan kuchukcha” ertagidan olingan parchani tarjimasini tahlil qilamiz: C'era una volta un cane che non sapeva abbaiare. Non abbaiava, non miagolava, non muggiva, non nitriva, insomma, non sapeva fare nessun verso. Un giorno un galletto gli disse: - Fa' come me! E lanciò due, tre sonori chicchirichì! Mi sembra difficile - disse il cagnetto.- Macché, è semplicissimo- *Bir bor ekan, bir yoʻq ekan, qadim qadim zamonda hurishni eplolmaydigan kuchukcha boʻlgan ekan. Na hurar ekan, na maʼrar ekan, na moʻ-moʻlar ekan, xullas, hech qanday ovoz chiqara olmas ekan. Kunlardan bir kuni, bir xoʻroz unga shunday debdi: Mendek qil: ikki-uch urinishda qu-qu-ru-qu deb ovoz chiqaribdi. Menga juda qiyin tuyulyapti, dedi kuchukcha.-Qanaqasiga, juda osonku.*

Mazkur tarjimada ertaklarning anʼanaviy boshlanishidan tortib, hikoya qilishda qoʻllanilgan feʼl zamonlarigacha kitobxonni voqealar taʼsiriga tushira olishi, oʻziga ergashtirishi maqsad qilinadi. Shuning uchun “C’era una volta” birikmasini “bir paytlar, bir zamonlar” deb emas, “bor ekanda, yoʻq ekan” deya tarjima qilish oʻrinli boʻladi. Ikkinchi gap tarjimasida antonimik tarjima usulidan foydalanish, badiiy taʼsirchanlik maydonini yanada kengaytiradi va ohangdorlikni kuchaytiradi. Chicchirichì taqlid soʻzining oʻzbek tiliga “qu-qu-ru-qu” tarzida tarjima qilinishi taqlid soʻzlar ekvivalentligini namoyon qiladi.

Tarjima jarayonida badiiy-tasvir vositalarining tasnifi quyidagicha ifodalanadi: *Leksik-semantik vositalar*. Metafora, oʻxshatish va epitetlar ertakning estetik asosini tashkil

etadi. P. Newmarkning tasnifiga ko‘ra, metafora tarjimasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish, o‘xshatishga aylantirish, ma’noga aylantirish yoki madaniy ekvivalent yaratish usullaridan foydalaniladi. T. Dobrzyńska bu jarayonda “metafora-metafora” (M→M) va “metafora-ma’no” (M→S) konversiyalarini ajratadi. Ertaklarda yosh auditoriyaga mo‘ljallanganligi sababli, ko‘pincha soddalashtirilgan, o‘qish uchun qulay variantlar tanlanadi. Masalan, italyan tilida “*La vita e’ una strada lunga*” birikmasi mavjud bo‘lib, unda hayot uzun yo‘lga qiyoslanadi. Biz uni “Hayot bu uzun yo‘ldir” yoki “Hayot uzun yo‘l kabidir” deb ham tarjima qilishimiz mumkin.

Frazeologik-madaniy vositalar. Maqol-matal, xalqona iboralar va shevaga xos so‘zlarni tarjima qilishda Vinay va Darbelnetning ekvivalentlik, modulyatsiya va adaptatsiya usullari qo‘llaniladi. Italyancha “bianco come la neve” (“qor kabi oppoq”) iborasini o‘zbekchaga o‘tkazishda bevosita o‘xshatish (“qor misol oppoq”) shakli funksional ekvivalent hisoblanadi.

Kompozitsion-motiv tizimi. Kalvino to‘plamidagi ertaklarda “uch karra sinov”, “sehrli yordamchi”, “yovuz kuch bilan to‘qnashuv” kabi takrorlanuvchi syujet elementlari mavjud. Ularni o‘zbek tilidagi folklor motivlariga uyg‘un tarzda ko‘chirish orqali moslashuv (coesione) saqlanadi.

Shuningdek, zamonamiz tadqiqotchilaridan K.A.Gebbia(2023) metafora tarmoqlarining izchilligini saqlash zarurligini ta’kidlaydi: ertaklarda qayta-qayta takrorlanadigan obrazlar (oq-qora tazodi, nur-soya, yaxshilik-yomonlik) o‘zaro semantik aloqada bo‘lib, ularning izchilligini buzish matnning ramziy tuzilmasiga zarar yetkazadi. Tarjima strategiyalarini qo‘llashda quyidagilar muhim:

Metafora/o‘xshatish-semantik ta’sirni saqlash uchun barqaror xalqona ifodani tanlash: ***Quando gli asini volano-eshaklar uchganda*** deb emas, balki “tuyaning dumi yerga tekkanda” deb berilishi to‘g‘ri bo‘ladi chunki, o‘zbek kitobxonlariga *eshaklarning uchishi* notanish birikma sanaladi, ya’ni so‘zlashuvda umuman uchramaydi.

Frazeologik birliklar-realiya yoki dialektal atamalarni izoh yoki mos xalqona ibora bilan berish.

1. Ritm-takror -ohangdorlikni tabiiy ko‘rinishda tiklash.
2. Pragmatik moslashuv -yosh kitobxonlar uchun qisqa izohlar (glossariy) qo‘shish yoki soddalashtirilgan variantni tanlash.

Ushbu yondashuvlar orqali italyan xalq ertaklarining madaniy ruhi, xalqona ohangi va badiiy kuchi o‘zbek tilida tabiiy ifodalanadi. Italyan xalq ertaklarini o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayoni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqot masalasidir. E.Nida ilgari surgan dinamik ekvivalentlik prinsipi ertak obrazlarini o‘zbek o‘quvchisi uchun tabiiylashtirishni ta‘minlaydi. U.Eko ta’kidlagan pragmatik-madaniy moslashuv esa realiyalar va xalq og‘zaki ijodini madaniy kontekstga moslashtirishni nazarda tutadi.

Xulosa qilib aytganda, italyan xalq ertaklarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda badiiy-tasvir vositalarining mazmunini saqlab qolish uchun funksional ekvivalentlik, madaniy moslashuv va uslubiy uyg‘unlik tamoyillarini uyg‘un qo‘llash zarur. Shu asosda tarjima qilingan ertaklar o‘zbek o‘quvchisiga nafaqat hikoya sifatida, balki xalqona badiiyat namunasi sifatida ham estetik zavq baxsh etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.G‘ofurov, O.Mo‘minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma /Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2012. 15 b.
2. Baker, M. (2018). *In other words: A coursebook on translation* (3rd ed.). Routledge.
3. Kalvino, I. (1956). *Fiabe italiane*. Torino: Einaudi.
4. Kalvino, I. (1980). *Italian folktales* (G. Martin, Trans.). New York: Harcourt Brace Jovanovich. (Original work published 1956)
5. Dobrzyńska, T. (1995). Translating metaphor: Problems of meaning. *Journal of Pragmatics*, 24(6), 595–604. [https://doi.org/10.1016/0378-2166\(95\)00022-K](https://doi.org/10.1016/0378-2166(95)00022-K)

6. B.Ergashova, Italyan xalq ertaklarining tarixiy taraqqiyoti. So'z san'ati jurnali №4 | 2024
7. B.Ergashova, Folklor matnlarida milliy ruhiyatning aks ettirilishi. ["Arab tili globallashuv davrida: innovatsion yondashuvlar va o'qitish metodikasi"](#) mavzusidagi [xalqaro ilmiy-amaliy anjuman](#), 442-446

